

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN MUSIQA VA SAN'AT
AKADEMIK LITSEYI

ONA TILI VA ADABIYOT USLUB BIRLASHMASI

ISTE'DOD

JILG`ALARI

(Respublika ixtisoslashtirilgan akademik litseyining 6-“F”
o`quvchilarining ijodiy ishlar to`plami)

Toshkent
“.....” nashriyoti
2015

УДК...
ББК...
А ...

Uyga vazifa! Ha, o`quvchi salohiyatini belgilashda aynan uyga vazifalarining o`rni beqiyos. Ayniqsa, ularga ijodiy yondashsa yaxlit bir asarga aylanadi. Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san`at akademik litseyining bir guruh iqtidorli o`quvchilari tomonidan yaratilgan qiziqarli uyga vazifalari ijod qilingan. Ushbu kitob ona tili va adabiyot o`qituvchilari uchun uslubiy qo`llanma, o`quvchilar uchun ijodiy to`plam va barcha qiziquvchilar uchun esa qiziqarli manba bo`lib xizmat qiladi. Ishonamizki, ushbu qo`llanma sizga ham manzur bo`ladi.

Nashrga tayyorlovchilar:

**Dono Usmonova,
Jamoliddin
Nurmuxammadov**

Taqrizchilar:

Nilufar Yuldasheva,

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mahmuda Valiyeva,

Oliy toifali ona tili va adabiyot o`qituvchisi, “Sog`lom avlod uchun” ordeni sohibasi

Gulchehra Mamanbayeva,

Oliy toifali ona tili va adabiyot o`qituvchisi

Ushbu qo`llanma RIMSAL pedagogik kengashining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN.....

© Dono Usmonova, Jamoliddinxon Shermuhammedov.,
“.....” nashriyoti

SO`ZBOSHI

O`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishini oshirishda uy vazifalarining ahamiyati katta. Ba`zan darsning muhim bosqichlaridan biri bo`lgan uy vazifalariga jiddiy e`timor berilmaydi. Umumta`lim maktablari uchun amaldagi 6-sinf ona tili darsligida (6-sinf Ona tili. N. Mahmudov va b. Toshkent. 2009-y) uy vazifalari mavzu asosida grammatik topshiriqlarni bajarish, mashq tahlili, turli mavzularda matn tuzish, mavzuga oid so`zlardan foydalanish yoki tahlil etish talab qilinadi. Bunday an`anaviylik o`quvchilarda uy vazifalariga bo`lgan e`tiborni, mas`uliyatni susaytiradi, demakki, fanga bo`lgan qiziqish ham pasayadi. O`qituvchi bu masalaga ijodiy yondoshib, o`quvchilar ijodiy salohiyatiga turtki bo`ladigan, ularni mantiqiy fikrlashga turtki beradigan, yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga asos bo`ladigan uy vazifalari, topshiriqlarini tayyorlab kelishi zarur. Bu topshiriqlar ma`lum grammatik mavzu asosida yoki ijodiy topshiriq bo`lishi mumkin. Muhimi vazifa noan`anaviy shaklda bo`lib, o`quvchilar bu topshiriqlarni sidqidildan qiziqib bajarishadi. Kelgusi darsda esa rang-barang ijod namunalarini o`qishga oshiqadi, darsga bo`lgan qiziqishi oshadi, dars samaradorligi ta`minlanadi. Har bir o`quvchining uy vazifalari tahlil etilar ekan, avvalo, yarq etgan yutuq, topilmalar, noyob jumlar, so`z qo`llashdagi betakrorlikka alohida urg`u beriladi.

Tajribamizda sinalgan ana shunday uy vazifalari litseyimizning 6 - "F" sinf ona tili va adabiyot yo`nalishiga ixtisoslashgan bo`lib, ushbu sinfda "Bilimlar bellashuvi"ning tuman, shahar hamda Respublika bosqichi g`oliblari bor. Ushbu qo`llanma, aynan, shu sinfning iqtidorli o`quvchilari ijodi asosida tayyorlangan bo`lib, ona tili, adabiyot va ijodga qiziquvchi o`quvchilar va fan o`qituvchilariga kerakli manba bo`ladi degan umiddamiz.

ALIFBO TOPISHMOQ

ALIFBO TOPISHMOQ-1

A dan boshlansam agar, shirin, totli ne'matman.	(Asal)
B dan boshlansam agar, sitruslikda qimmatman.	(Banan)
D dan boshlansam agar, suvda insonlar do'sti.	(Dilfin)
E dan boshlansam agar, soqolli bir jonzotman.	(Echki)
F dan boshlansam agar, kuch qudratda polvonman.	(Fil)
G dan boshlansam agar, qizlar ko'ngliga yorman.	(Gul)
H dan boshlansam agar, gerbimizda tayyorman.	(Humo qush)
I dan boshlansam agar, insonlarga qo'riqchi.	(It)
J dan boshlansam agar, polaponman, jajjiman.	(Jo'ja)
K dan boshlansam agar, bir kungina yashayman.	(Kapalak)
L dan boshlansam agar, bahorni qarshilayman.	(Laylak)
M dan boshlansam agar, baroqvoy bir hayvonman.	(Mushuk)
N dan boshlansam agar, eng muqaddas ne'matman.	(Non)
O dan boshlansam agar, temirga juda boyman.	(Olma)
P dan boshlansam agar, o'zbekning boyligiman.	(Paxta)
Q dan boshlansam agar, bo'ridan ho'p qo'rqaman.	(Qo'zichoq)
R dan boshlansam agar, koinotni quchaman.	(Raketa)
S dan boshlansam agar, samolarda uchaman.	(Samolyot)
T dan boshlansam agar, tovuqqa juda o'chman.	(Tulki)
U dan boshlansam agar, tunda poyloqchi qushman.	(Ukki)
V dan boshlansam agar, barchaga aziz maskan.	(Vatan)
X dan boshlansam agar, qichqiraman tong sahar.	(Xo'roz)
Y dan boshlansam agar, mushuklar avlodidan.	(Yo'lbars)
Z dan boshlansam agar, otga juda o'xshayman.	(Zebra)
O' dan boshlansam agar, g'ozning eng yaqin do'sti.	(O'rdak)
G' dan boshlansam agar, suv ostining sayyohi.	(G'avvos)
Sh dan boshlansam agar, hayvonlarning podshohi.	(Sher)
Ch dan boshlansam agar, piyolaga onaman.	(Choynak)
Bong, tong, zang, so'zlarini bir bo'g'inda yozaman.	
Yod oling ash'orimni	
Alifbo tartibida	
Harflar ketma-ketligi	
Esdan chiqmasin sira. (Nozima O'ktamova)	

ALIFBO TOPISHMOQ - 2

A – asalni sevadi	(Asalari)
B – bahorni bezaydi	(Bodom)
D – cho'lg'a o'rtoq bo'ldi	(Dasht)
E – qo'yga do'st – yor bo'ldi	(Echki)
F – suvlar otiladi	(Favora)
G – so'zdan tuziladi	(Handalak)
H – qovunning zotidan	(Gap)
I – daryolar ortidan	(Irmoq)
J – tovuqning bolasi	(Jo'ja)
K – oltin rang xonasi	(Kuz)
L – kelsa gar yoz bo'ldi	(Laylak)
M – sichqonni sevadi	(Mushuk)
N – kun-tun raqsga teng keladi	(Navro'z)
O – qizarib pishadi	(Olcha)
P – muzlikda yashaydi	(Pingvin)
Q – bahorning daragi	(Qaldirg'och)
R – yog'och tekislaydi	(Randa)
S – hayotning manbai	(Suv)
T – mo'ridan chiqadi	(Tutun)
U – oromda kechadi	(Uyqu)
V – samoni quchadi	(Varrak)
X – tongda qichqiradi	(Xo'roz)
Y – yo'l – yo'ldir uning to'ni	(Yo'lbars)
Z – oq – qora kiyimli	(Zebra)
Q – suvda suzar chiroyli	(Qayiq)
G' – o'rdakning zotidan	(G'oz)
Sh – Uchadi havoda	(Shar)
Ch – suvlar tashiladi	(Chelak)
Ng dan hech boshlanmaydi.	(So'z)
	(Raxmanova Naima)

ALIFBO TOPISHMOQ – 3

A – piyoz ko'rinishidek,	(Anjir)
B – u bahorda gullaydi.	(Bodom)
D – kasallikka davodir,	(Dori)
E – chaqqon so'zining do'sti.	(Epchil)
F – eng yirik hayvondir u	(Fil)
G – jurnalning bir turi u	(Gazeta)
H – halolning dushmani	(Harom)
I – yo'qdir uning oyog'I	(Ilon)
J – tovuqning farzandi	(Jo'ja)
K – sizga bo'lgan u dastyor	(Kitob)
L – yozda zo'r tiziladi	(Laylak)
M – banandir ozuqasi	(Maymun)

N – u bir kasbning egasi	(Novvoy)
O – qimmatbaho boylikdir	(Oltin)
P – kosaning ukasi	(Piyola)
Q – har narsa eshitadi	(Quloq)
R – yolg'on gapga u qarshi	(Rost)
S – tozalikka u soqchi	(Sovun)
T – u dir uzum daraxti	(Tok)
U – kosmanaftning bir nomi	(Uchuvchi)
V – yurt so'zining og'asi	(Vatan)
X – u xabar keltiradi	(Xat)
Y – har tun yalt-yult yonadi	(Yulduz)
Z – u Tohirning yori	(Zuhra)
O' – bir dengizning nomi	(O'lik dengiz)
G' – mag'lubning dushmani	(G'olib)
Sh – chiroqning ukasi	(Sham)
Ch – nuroniy bir kishi	(Chol)
Ng dan hech boshlanmaydi	
Hech sababin bilmaydi.	
Mayli shunga ham shukur	
O'qing o'rganing chuqur. (Xolboboyeva E'zoza)	

ALIFBO SHE'R

Aqillimiz odatda,
 Baxtiyormiz albatta
 Dadilmiz har ishda
 E'tiborli har yonda.
 Filni sichqon qilamiz.
 Go'zaldir jahonimiz
 Hushyorlik shiorimiz
 Intiqlik dil so'zimiz
 Jahldan bor ozgina
 Kechirimli so'zgina
 Lobar-lobar qizlarmiz
 Munchoq-munchoq ko'zlarimiz
 Nazokatli, axloqli, odoblimiz, aqli. (Gulhayo O'ktamova)

QOFIYADOSH TOPISHMOQLAR

Ch dan kelsam,
 Xizmat qilib barchaga. (chori)

B dan kelsam,
Qochar quyon uyiga. (bo'ri)
G dan kelsam,
Ifor kelar mendan hardam. (gul)
K dan kelsam,
Bo'lib qolaman zarra. (kul)

Akbar

Ch dan kelsam iching meni. (choy).
L dan kelsam, kechmang meni. (loy).
K dan kelsam, barg to'kadi daraxtlar. (kuz).
Y dan kelsam uch xonali son bo'lar (yuz).

Javlon

Y dan kelsam, safar chog'i yurgin menda. (yo'l).
K dan kelsam yoz pallasi suzgin menda. (ko'l).
K dan kelsa qavat qavat,
U hammaga bo'lar ovqat. (karam)
Mazza qochganda har vaqt
Insonlarga zo'r quvvat. (malham)

Abbos

Ne'mat bordir dunyoda,
Har narsada ziyoda. (non).
Bir, ikki, uch qatorda
Kelar bir-bir navbatda (son)

Doniyor

T dan boshlansa harfi,
Qordek oppoq yumshoqdir.
Ovqatga berar maza,
U siz ovqat bemaza. (Tuz)

K dan boshlansa agar,
To'rt faslning biri u.
Sariq rang oladi bog'
Barglar to'kilar shu chog'. (Kuz)

(Nodir)

Qaynoq suvga cho'milib,
Yozilaman namlanib,
Xushbo'y hidin taratib
Maza berar damlanib. (Choy)

L dan kelsam agar,
Devor hosil qilaman.
Buni toping bolalar,
Sizlarga yarab qolar. (Loy)

(**Nozima**)

Ona tilida esga ol.
Meni derlar bo'lak ... (Xol)

Qattiq x dan kelsam agar
Mendirman yuzdagi ... (Xol)

K dan kelsam agar,
Topgin mendan zar. (Kon)

N dan kelsam agar,
Totliman, asal. (Non)

Boshlansam K harfidan,
Mensiz ko'ra olmassan. (Ko'z)
Boshlansamchi S harfdan,
Mensiz fikring aytolmassan. (So'z)

Boshlansam Y dan,
Otning sochidir. (Yo'l)

Boshlansam M dan,
Sutim totlidir. (Mol)

(**Naima**)

T dan kelsam
Yemishdirman tovuqlarga. (Tariq)

S dan kelsam
Rang – nuridirman quyoshjonga. (Sariq)

Boshlansam T dan
Qon o'tar mendan. (Tomir)

Boshlansam T dan
Men tog'lardanman. (Tyanshan)

Q harfdan kelsam,
Men joning bo'lsam. (Qon)

S harfidan bo'lsam
Uqqin meni ham. (Son)

O' harflidirman
Xayoling menman. (O'y)

U harfidanman,
Turar joyingman. (Uy)

(Gulhayo)

K dan boshlansam har on,
Qornim to'la mis, tillo. (Kon)

N dan boshlansam agar,
Ulug' ne'matman har gal. (Non)

L dan boshlansam agar,
Xumcha qilar kulollar. (Loy)

M dan boshlansam agar,
Avtomobil orom olar. (Moy)

Q dan boshlansam agar,
"Oh qanchalik issiq" – derlar. (Quyosh)

U dan boshlansam agar
23 yigitlar. (Undosh)

Q dan boshlansam har on
O'zim oppoq un simon. (Qor)

A dan boshlansam har on
Quti liq qizil marjon. (Anor)

(E'zoza)

A dan kelsa, qip-qizil achchiq, (Anor)
B dan kelsa, qattiq sap-sariq. Behi)

D dan kelsa, dona-dona, (Do'lana)
E dan kelsa, yagona. (Eman)

F dan, chiroy, ko'rk, (Fantan)
G dan kelsa, go'zal xulq. (Go'zal)

Hammadan ham pok rangi, (Halollik)
Ilmda donorog'i. (Kitob)

(Husnora)

Ko'proq suvdan ichadi,
Uni hamma sevadi.
Qovunning o'rtog'dir,
Asl joyi tuproqdir.

Dehqonlar sotar uni
Yozdadir uning kuni.
Uzun palak yozadi
Keyin farzand unadi.
Dumaloqdir, koptokdek,
Ammo tepib bo'lmaydi,
Tepsa uni uvoldir.
Lekin oson so'lmaydi.
Chertib tanla, tezroq o'yla.
Javobini keyin so'yla.
Uni topgin Dilafruz
Javob bu shirin (Tarvuz).

(Nodir)

Gulning lablaridan qo'nim topgan bol,
Yoki gul yuziga yarashgan bir hol. (Shudring)

(Abdumavlon)

Ba'zi ijodkorlarga – ilhom parisi
Unga oshiq bulbul, hatto arisi. (Gul)

(Sharif)

Yomg'irning boshi,
Kuzning ko'z yoshi. Tomchi)

(Doston)

SO'Z O'YINI

Ayni saratonda issiq mahal **yoz**
Yoz faslida ijod qilgin, **yoz**
Tabiat bag'rida yayrab dam **olib**,
Shunda ko'nglingdagi chigallikni **yoz**.

Husnora

Qishloqda eng yaxshi ulovdir bu **ot**
Yovuz bilan sen chiqarmagin **ot**
Tubanlik, poklik bo'lsin senga yot
Har doim esda tut g'araz fikring **ot**.

Gulhayo

Bir qiziq hangoma bo'lgandi **burun**,
Eshitib lol qolgandi “og'iz-u **burun**”.

Shaxzod

Tikmoqchi bo'ldim bir kuni **tugma**,
Oyim dedi: "ipni noto'g'ri **tugma**".

E`zoza

Oldinlari boylarni qilishgan "**quloq**",
Biz esa sinfda deymiz Avazni "**quloq**"
Bordir bir qush, nomidir **mayna**,
Buni bilmasangiz qilishar **mayna**.

Naima

Ortiga ham qaramay yugurardi, **To'xtasin**,
Singlim dedi, zorlanib "Shoshmay tursin, **to'xtasin**".

Buvijonim tayyorlar mazali **suzma**,
Derlar: "Buni kosaga **suzma**!"

Nozima

Mazali mevalardan biri bu **olma**,
Ammo uni aslo beruxsat **olma**!

Taomlardan lazzatlisi **qaynatma**,
Qaynatmani me'yorisiz **qaynatma**.

Mardon

Ba'zi vaqtlar arg'amchiga madad bo'lar **qil**,
Shunday ekan, sen do'stingga doim yordam **qil**.

Bizni qishloqda bor, bir qadimiy **tut**,
Sen axir insonsan, ish boshini **tut**.

Nodir

Bugun juda nurli bo'lib chiqqan edi **kun**,
Chunki bugun kun bilan fayzli edi **kun**.

Bulutlar ham to'zg'ib, ochilgandi **ko'k**,
Shunday nurli kunlar uchun ko'kning yuzi **ko'k**.

Akbar

Bu payt shamol birozgina olmoqchiydi **dam**,
Endi havo damligidan qaytar edi **dam**.

Etti xazinzning biri erur **tut**

Shu sabab bog'ingda bu daraxt **tut**.

Abdumavlon

E'tiborli bo'lg'in ko'p xayol **surma**
Yuraging dardlari go'yoki **surma**
Hayot kitobingni bezamoq chog'i
Fursatni boy berma, ortga hech **surma**.

Shohabbos

Xayol og'ushida besamar **suzma**,
Ijod daryosi keng, mavjlanib **suz, ma!**
Ayroni achimas kimsalar haqda
Deyishar doimo "bemaza **suzma**"

Sharif

FIKRNI DAVOM ETTIRING

O'quvchilarga ma'lum fikr berilib, uni mantiqan davom ettirish topshiriladi.

*** Ilmga cho'qqi yo'q, ammo...**

1. *G'alaba bor, donolik bor (Nodir)*
2. *Inson umrida boqiylik. (E`zoza)*
3. *Ammo uning nurli manzillariga intilish naqadar yoqimli. (Akbar)*

*** Yuz bemani kitob mutolaasidan, bir nodonning suhbatini afzal, zero...**

4. *Nodonning so'zidan ham dono fikr izlamoq, insonning baxtli ekanligidan dalolatdir. (Naima)*
5. *Nodonning bemani suhbatini faxmlashining o'zi ham donolikdir. (Gulhayo)*

*** Kitob o'qimagan kimsa...**

6. *Ilm bog'ining musofiridir. (Shohabbos)*
7. *Jaholat tikani. Baxtning "Nodon" og'lidir. (Abbos)*
8. *Devor kovagida yashaydigan tasqara kaltakesak yanglig' ayanchlidir. (Mardon)*

*** Odamlar qiziq-a...**

9. *Bir joyda, hech kimga ziyoni tegmay oqayotgan ariqni loyqalatib, huzur qiladilar. (Abdumavlon)*

10. Faqat baxtni sevishadi, chunki tangrim barchamizni baxtning oltin ipiga o'rab yaratgan. (**Sharif**)

11. Inson shunday buyukki har qanday kishi ham uning yo'lini to'sa olmaydi. Bu qalb deb atalgan ulkan qulfga faqatgina aql-idrok, mehr-muhabbat kalit bo'la oladi. (**Doston**)

12. G'iybat gunohning eshigi, deyishadi-yu, uning eshigidan bot-bot mo'ralashadi. (**Doniyor**)

13. Olmaning tagiga anor tushadi deb, umid qilishadi. (**Javlon**)

14. Dorbozlikni bilmasalarda, olov bilan o'ynashadi. (**Nozima**)

15. Bozorda pastga urib olgan narsasini uyga borib, maqtab-maqtab yeyishadi. (**Javohir**)

16. O'zi gunoh qilib turib, birovga "qilma" deydi. (**Husnora**)

*** Yolg'on so'z va adolatsizlik...**

17. Jamiyat daraxtiga tushgan qurt. (**Bobur**)

18. Ma'naviyatni jarlik tomon tortuvchi kuch va tubanlik shajarasidir. (**Bobur**)

*** Donishmanddan so'rashibdi: "Dono va nodonning o'rtasida qanday farq bor". Shunda donishmand...**

19. *Dono ilm o'rgatar,
Nodon qiliq o'rgatar.* (**Abbos**)

20. *Dono poklik belgisi
Nodon yotlik belgisi.* (**Shohabbos**)

21. *Dono bilim
Nodon zulm.* (**Mardon**)

22. *Dono olam kezuvchi,
Nodon dilni kemiruvchi.* (**Akbar**)

23. *Dono bilim o'chog'i,
Nodon pista po'chog'i.* (**Javlon**)

24. *Dono otga mindirar,
Nodon ko'ngil sindirar.* (**Javohir**)

*** Dengiz qanchalik to'lib-toshmasin, daryo suviga muhtoj...**

25. O'quvchi qanchalik zeharli bo'lmasin, ustoz tarbiyasiga tashna. (**Husnora**)

*** U yovvoyi gul edi dashtda tug'ildi. Bahor yomg'irlari shivirlagan pallada yerni timdalab yorug' dunyoga chiqdi. Barq uchib o'sa boshladi. Biroq...**

26. U hali nimjon edi shamol turdi, gul barglari tebrana boshladi. Gul barglari to'kiladi. Umri yakun topdi. Yana bahor kelganda matonat ila yorug' olam yuzini ko'rmoq uchun shoshadi, qorning zahrini, toshning qahrini yengadi. Aslida bu

hayot qonuni! Birgina mitti gulning hayoti bizga o'rnak bo'lsa arzirlikdir, aziz tengdoshim.(E`zoza)

27.Oldinda tabiatning injiq fasli – kuz kirib kelayotgan edi. Dashtning quruq, izg'irin sovuqlari yovvoyi gulning barglarini sarg'aytirdi. Ojiza gul bu qiynoqlarga bardosh bera olmay, yorug'dunyoni tark etdi. (Naima)

*** Donishmandning do'sti unda nohaqlik aralashganroq ishda yordam berib yuborishishini so'radi, lekin rad javobini olibdi. Shunda jahl bilan – sendan birgina narsa so'radim-u, shuni ham qilolmasang, do'stligimiz qayoqda qoldi? – debdi. Donishmand esa**

28.Agarda nohaqlik aralashgan ishda senga yordam bermaganim bois do'stlik rishtalarini uzsang, do'stlik uchun har narsaga tayyorman, ammo razolat girdobiga kirishga emas. (Gulhayo)

29.Yomon ishga boshlaydigan do'stdan, uning bo'lmagani afzaldir. U albatta bir kunmas, bir kun, boshi berk ko'chaga kirib qoladi, so'ngra u boshqa do'st-u birodarlarini ham o'sha botqoqlik tomon chorlaydi. Do'st tanlashda adashmaslik lozimdir. Biroq men o'sha xatolikka yuz tutibman. Afsuski, adashibman...(Nozima)

*** Yomg'ir yerga qanchalik foyda keltirsa...**

30.Yer bizga shunchalik to'kinlik bag'ishlaydi.(Husnora)

RAQAMLAR BO'YLAB SAYOHAT

Birinchidan siz o'ylang,
Shoshmay bamaylixotir
Sonlarni boshlab berib
Gerdayib turadi "bir"
Shunday son bor aslida,
Hamma unga oshiqdir
Bilib endi siz so'ylang
Bu sonning nomidir "bir"
"Ikki" degan son bordir,
U ikkichiga yordir.
Dars qilmasang albatta,
"Ikki" baho tayyordir.
Har tong turib, to'plab kuch,
Mashq qiling bir, ikki, **uch**.
Puxta bilim egallang,
Bilim bo'lsa bir oz mo'rt.
Senga hech ikkilanmay
Qo'yishadi yaxshi "to'rt"
Bu son bilan faqatgina,

Donolar do'st bo'ladi.
Ustoz aqillilarga "besh" bahoni qo'yadi
Bu son kelishiklarning
Shakliga ham teng bo'lar
Olti soni bahoda
Qiymati ham keng bo'lar.
Haftada bor 7 kun
Kamalak rang yettita
Ta'lim borasida ham
Maktab yoshi 7 da
Sayyoralar yig'ilib,
Qo'shilsalar quyoshga
Bu sanoq son qaysidir
8 son keldi boshga
Har fasl gali kelib
Ketayotgan vaqtida
9 oydan o'tgach yana
Uchrashasiz shu joyda.
Bu sanoq sonimiz-chi,
Kiyib olib yangi to'n
Ikki xonali bo'lib,
Qarshimizda turar "o'n".

(E`zoza)

Bir sonidan, boshladim
Birdan qur'a tashladim
Ikki ko'zim chiroqdir,
Uch dugona o'rtoqdir.
To'rtta changi yasadim,
To'rt tarafga tashladim.
Olamiz besh har darsda,
Beshta ovlon birpasda.
Oltitadir burchagim,
Oltitadir turshagim.
Yeti qavat osmonim,
Yettitadir posbonim.
Sakkiz oyoq tez suzar,
Sakkiz baliqni ko'zlar.
Toqqizta jo'ja oriq,
Hammasi yedi tariq.
Daryo suvi toshadi,
O'n O'nbaloq oshadi.

(Naima)

TAFAKKUR HUDUDI

“D”

Doniyor do'mbirachilikni do'ndiradi. Doniyor Davronga dedi: “Davron do'mbirachilikni do'ndirmayaptimi?” Doniyor: “Do'stim do'mbirachilikni do'ndir deysan – u, do'ndira olmaymanda”.

Davron, desang Doniyordagi do'mbirachilar derdi: “Do'stlaringni do'mbirachilikka do'ndirsang, do'mbirachilar dahshatdan dunyoning do'mbirachisi”, – deb yuboradi. “Dahshat-a do'stim? – dushanbadan do'mbirachilikniyam do'ndiraman”, - debdi Davron.

Akbar Zuhurjonov

“K”

Komila kutubxonaga kirdi. Kutubxonada katta-katta kitoblarni ko'rib ko'zida kulgi ko'rindi. Kutubxonaga Kamron kelib Komilani ko'rdi. Ko'rdi-yu Komilaga Komila kimga kulyabsan kitobgami kitobdagi kishilargami? Komila kulib, Kamol ko'zimga ko'rinib ketdi-da, Kamron Komilaga kulimsirab kitoblarni ko'raverdi.

Javohir Zohidov

“B”

Bobur bobosinikiga bordi. Bobosi Boburga beshta bonkada baliq berdi. Baliqlarning Baliqtilla, Boysun, Bobo, Bobur, Baroq bolalari bor edi. Bobur baliqlarni boqdi. Baliqlar baquvvat bo'ldi. Bobur bobosinikiga boradigan, baliqlarni boqadigan bo'ldi.

Bahromning bobosi Bahodir bobo. Buxoradagi buyuk bog'bonlardan biri. Buxoradagi buyuk bog'bonlardan biri bo'lmish Bahodir boboning bolasi Botir. Botir Beshtoshdagi Brigadirlar bo'limining boshlig'i. Botirning bitta bolasi bor. Botirning bolasini beshta buzog'i bor. Bahrom buzoqchalarini bog'chadagi bedapoyada boqdi. Buni bilgan bog'cha boshlig'I, Bahromga bildirmay buzoqchalarini bobosining bog'iga bog'ladi.

Mardon Qahramonov

“E”

Ergash elektr ekologiya ekanini e'tirof etdi. Ergash e'zozaga erksevar ekanini eslatdi. E'zoza e'zozga erkalandi. Ergash eronda e'tiborga erishdi. Ergashning egizagi erkak ekan, el e'tiboriga erishdi. Ergash e'tiroz etar edi. Erta ertalab Erkin eshagini egasiga eltdi. Eronda ertalab ertakchilar ertak eshitdilar.

E'zoza, Erkin egizak. E'zoza Erkinga e'tibor etdi. E'zoza ehtiyotli, ehtiromli E'zozani e'zozlang. Erkin esa e'tiqodli, el e'tiborini egalladi. Erkinga e'tibor eting.

Javlon Shukurov

“S”

Sayyora sakkizinchi sinfda sinfkom. Sayyoraning sinfdoshlari Sarvinoz, Soxiba, Surayyo. Sayyora, Sarvinoz Samarqandlik. Surayyo Surxondaryolik. Sayyora saxiy, saxovatli, sezgir, sergak, so'zamon so'z soxibi. Sayyora sinfda sardorligi sababli Sarvarga, Sirochga, Saddamga, Saddinisaga so'zamon. Sayyoraning sirdoshi Sarvinoz. Sarvinoz Sayyoraga sodiq. Sarvinoz sap-sariq, sariq sochli, suzilma. Sayyoraning sirlarini sultoni Sayyora, Sarvinozning suhbatdoshi Surayyodir. Surayyo sergap. Sakkiz sutkada sakson so'z so'zlaydi. Sayyora, Sarvinoz, Surayyo sergap, sergak, saxiy, saxovatli, sezgir, sabrli, so'zamonlar. Sayyora, Sotti, Sarvinoz sarvqomat. Surayyo samimiy, serpardoz.

Shaxzod

“D”

Dilmurod, Doston, Dilshod do'stdir.

Dilmurod dadasiga dedi: Dada do'stlar doimiy do'st-a? Dadam: “Do'stlar doim do'st” dedi. Dadajon, Dilmurodning doirasi Dilshodnikidek dumaloqmi? Dadam: Dilmurodning doirasi Dilshodnikidek dumaloqda,” dedi. Dada do'mbirachilarda doira dang'illaydimi? “Do'mbirachilarda doira dang'illaydi,” - dedi dadam. “Dada Dilmurodga do'stmanmi, dushmanmanmi?” - dedim. Dadam-chi: “do'stsan”, - dedi.

Bobur Tuyakov

“S”

Salima singan soatni Surxondaryolik soatsozga sakson so'mga sotdi. Solixa Salimadan singan soatini so'radi. Salima Solixaga singan soatni Surxondaryolik soatsoz Sobirga sotganini so'yladi. Solixa sakson so'mdan sakkiz so'mini so'radi.

Doniyor Samadov

“K”

Karim Komilani ko'chada ko'rdi. Keyin Karim kutubxonaga kirdi. Kutubxonada Karim, Kozim, Komilni ko'rdi. Keyin Karim “Konstitutsiya”, Kozim “Koinot”, Komil “Kzamalak” kitoblarini ko'rdi. Karim ko'chadagi kafega ketdi. Komil, Kozim, Komila kutubxonadan ko'chaga ketdi.

Doston To'xtayev

“S”

Samandar sayramaydigan sa'vani sayratib, Surxondaryoga sotdi. Sa'vaning soqqasiga Sirdaryoning samolyotini sozlatdi. Sozlatgan samalyotni Sanjarga sakkizyuz sakson so'mga sotdi. Samad samalyotida Sirdaryodan Surxondaryoga sakradi. Sakraganda, samalyotni sindirganini sezdi. Samad samalyotning sindirganini sezdirmasdan, Soliga sotdi. Soli samalyotni sinadi. Sinovda samalyot sinib sochildi.

“T”

Tolib Tyanshan tog'iga tirmashdi. Tunda tog' tepasigacha tirmashdi. Tepada turganda, tirillayotgan traktor tagida tovuq tariq terayotgan edi. Tolib tovuq tuxumini tol tagiga to'kdi. To'kilgan tuxumlar toshga tegib, teshildi. Tolib tog'dan tuxumsiz tushib, tog'asining tovug'idan tuxum topib, Toshmurod tog'asiga tuxumni topshirdi.

Abbos Usmonaliyev

LABIRINT MAQOLLAR

(Maqollarning so'nggi harfidan boshlanadigan maqol toppish topshirig'i)

Molingni o'g'riga topshir qo'shning olamondan bo'lsin.

Nog'ora, tovushining uzog'i yaxshi.

Ilm topmay maqtanma.

Arg'umoq birda yolli, birda yolsiz.

Zamoning qanday bo'lsa, bo'rkingni shunday kiy.

Yotgan yotar, qidirgan topar.

Rashkning ko'zi ko'r bo'ladi.

Ish oshga tortar, yalqovlik boshga.

Arab bor joyga qarab bor.

Rejasiz daraxtzor – changalzor.

Rejali ish – hamisha besh. (Nozima)

LABIRINT HIKMATLAR

(Hikmatlarning oxirgi so'zi bilan bahr-u bayt shaklda hikmat ijod qilish)

Bo'lur oyoq ostida ranj-u **balolar**

Balolar chaladi dahshat **navolar**.

Navolar ichinda eh, orzu **yig'lar**

Yig'lar uvvos solib hatto **samolar**.

Samolar aslida dardning **o'lkasi**,

O'lkakim, go'zallikning chiqmaydi **sasi**.

Sas-u navolar bu aslida bir qalb

Qalb – shisha, ichi to'la **dard**.

Dard ila yaxshilik birga **hamohang**,

Hamohanglik ichra **yashar**

Yashar ezgulik degan ohang. (Doston)

MITTI ISHORALAR

Yomg'ir bu – insonning ichki tuyg'ulari, tog'yoniga o'xshaydi. Insonning barcha yomon hilqatlarini yuvib ketayotganga o'xshaydi. Yomg'irning har bir tomchisi inson ko'z yoshi misoli shafaf mas'um va beg'ubor. Shuning barobarida uning har bir tomchisi dillarni bir-biriga qanchalik yaqin etayotgandek tuyuladi.

(Javlon)

Orzu – sen odamlarni orzu saltanatiga o'zingning oltin aravachangda olib borasan-u, lekin yetib borgach kalitingni topa olmay qolamiz.

(Doston)

Sevinch – qushlarga qanoat, odamlarga esa go'zal tuyg'u ato etasan.

(Abdumavlon)

Xayol – sen haqingda o'ylaganimda dunyoni ostun-ustun qilgim keladi.

(Sharif)

Baxt – odamlar tug'ilishi bilanoq to qabrgacha sen tomon intilishdan charchamaydi.

(Nodir)

Ko'z

Ey, ko'z, xuddi ko'z munchiq kabi porlab, jilvalanib turasan. Siz, shahlo ko'zlar bilan biz qanday chiroyli narsalarni ko'ramiz. Biz tug'ilganimizdanoq shu shahlo ko'zlar orqali ota-onamizni ko'ramiz. Siz, ko'zlar, bir-biringizga o'xshamasangizda ammo, insonlarning bir a'zosidan o'rin olgansizlar ey, ko'zlar, muqaddas ko'zlar...

(Javohir)

Til inson qudratining qo'mondoni.

Til - boyligi - taffakkur boyligidir.

Shaxzod

Til taffakkur gulshanining bog'boni. Til va so'z ko'ngil darvozasining yagono oltin kalitidir.

(Shohabbos)

Ko'p tilni bilish-bitta qulfga tushadigan bir nechta kalitga ega bo'lish.

Moziyning tasvirini chizuvchi rassom, tuyg'ularni yurak zindonidan ozod qiluvchi xaloskor, dunyoning yaratilishiga sabab bo'lgan bu qudrat til va so'zdir.

(Mardon)

Tugma – bechoraga qiyin, ko'ksi to'la teshik. Shunga qaramay, o'lganning ustiga tepgan qilib, igna ham uni tinch qo'ymaydi. Bu ham mayli, uni ip bilan bir kiyimga asir qilib qo'yadi. Tugma bo'lsa indamay, peshonam sho'r, qismatim, shu ekanda deb, taqdiriga ko'nib ketaveradi.

(Doston)

Tugma bu – hayot. Ota esa ignasidir. Bu hayotda ota ortidan o'z oilasini yetaklab, ming xil tugma-yu undagi teshikni ko'radi. Igna ham shunday: ortidan o'z ipini yetaklab, ko'pgina tugmani yorib o'tadi.

(Akbar)

Mehr – muhabbat insonlarni yaqinlashtirib, qalblarni isitganidek, tugma ham ko'ylakning ikki sohilini birlashtirib, jismni isitadi va xo'jayinininng ibo-hayosini qo'riqlashga xizmat qiladi.

(Abbos)

Qoshiq – ko'chmanchi qabilalarning bosh vaziri.

Eshik – manzil yaqinligidan darak beruvchi ishora.

(Doniyor)

Ona – bu sherli so'z. U yozilmagan kitob, o'qilmagan hayot sinovlari.

Qoshiq – misoli karvon, og'iz esa uni tunovchi qaroqchi. Karvon qancha urunmasin qaroqchilardan yukini saqlab qola olmaydi, lekin o'zi omon qoladi.

(Nozima)

Tikan – jonngni og'ritib, qoningni oluvchi hamshira.

Doska – oynaga qarab upa-elik suradigan, bir zumda fikridan qaytib o'z holiga qaytuvchi bir buyum.

(Husnora)

Do'stlik – sen juda ham qadrlidirsan, faqat seni orangga sovuqchilik tushsa tezda buzilib ketasan. Shuning uchun orangga sovuqchilik tushirmaslikka harakat qilaman.

G'azab – sen menda paydo bo'lsang, nima ish qilganimni o'zim ham bilmayman. Shuning uchun sen menga paydo bo'ganingda o'zimni bosishga harakat qilaman.

(Naima)

Tugma – libosning ikki yonini doimo birga qilishga urunuvchi sovchi.

Eshik – bu hayotga yo'l ochuvchi poydevor.

(Shaxzod)

Qoshiq – yaxshiyam seni joning temirdan. Agar sening joning temirdan bolmaganida insonning o'tkir tishlariga bardosh bera olarmiding-a. Men seni xuddi, elchiga o'xshataman. Sen elchi bo'lib kosadagi ovqatni og'izga yetkazasan.
(Gulhayo)

Tugma – bizni shamollab, dardga chalinishimizning oldini oluvchi dori-darmon.

Tugma – aytishimiz mumkinki, tugma libosning asiri. Bu shunday asirki, uning ikki oyog'i-yu ikki qo'lini "igna" deb atalmish, jallod "ip" deb nomlanmish zanjir bilan tang' boylangan.
(E`zoza)

Kitob – dunyo ilmlari jam bo'lgan Olloh in'omi.

Vaqt – bu qasr shunchalik qimmatliki, undagi har bir onda bir hikmat.

(Mardon)

Ona – jannat malikasi, oila farishtasi.

Ustoz – necha asrlardan beri bilim nurini sochuvchi quyosh

(Akbar)

Do'stlik – taqdir sinovlaridan o'tishda ko'maklashuvchi tuyg'u.

Sabr – qalb tog'ida ungan chechak.

(Shohabbos)

G'azab – inson hayot mazmunini ozgartiruvchi kuch.

Tabiat – Olloh yaratilganining etakchisi.

Vatan – ich-ichingdan o'zingniki ekanligini his qiluvchi oshiyon.

(Doston)

RANGLAR FALSAFASI

Oppoq – misli bir chiroq,

Qora – zulmatdir biroq,

Sariq – qayg'uli yaproq,

Qizil – tushdagi buloq,

Yashil – serhosil tuproq,

Moviy – osmondek bo'yoq,

Alvon – maqsaddir har choq,

Pushti – qizilga o'rtoq!

Akbar

Oppoq – misoli poklik,
Qora – misli yovuz qalb,
Sariq – qayg'uli yaproq,
Qizil – g'aroyib bir tush,
Yashil – mo'jizaviy tabiat,
Moviy – armonli bir yomg'ir,
Pushti – uyg'onish uyg'unligi,
Alvon – maqsadsiz inson.

Nodir

Qizil – qurbonlikning belgisi,
Qora – yovuzlikning kelgusi,
Oq – poklikning bosh g'oyasi,
Yashil – go'zallikning doyasi,
Sariq – tillo rangining biri u,
Ko'k – kamalakning turi u,
Siyoh rang – insonning g'amligi,
Nim pushti – umrning kamligi.

Shohabbos

Oq – poklik belgisidir,
Qora – yovuzlik kelgusidir,
Yashil – tabiat chiroyi,
Qizil – g'arazlik timsoli,
Sariq – misoli bir quyoshdir,

Abdumavlon

Ko'k – moviy ko'z yoshdir
Pushti – qizlar tabassumi.
Yashil – jonli tabiat
Oq – poklikning belgisi
Qizil – qaynoq qon ramzi
Qora – zulmat kelgusi.
Pushti – tabassum har on,
Alvon – ishonchsiz inson.

Abbos

Oq rang – kelinlar libosi
Qora rang – asrlar vabosi,
Ko'k – esa ko'ngillar davosi,
Qizil rang – qonimiz sadosi.

Doston

Ko'k rang – to'q erur

Yashil rang – bog' erur,
To'q rang – zor erur.
Oq rang – qor erur,
Qora rang – dor erur,
Qizil rang – yor erur.

Doniyor

Tog'lar haybati – **ko'k rang**,
Bog'lar chiroyi – **yashil rang**,
Yorlarning sevgisi – **qizil rang**,
Dunyo asli shunday **rang – barang**

Javlon

Sariq rang – quyoshning nuridir.
Moviy rang – osmonning gulidir,
Qizig'ish rang – kunning botishi,
Siyohrang – tongning otishi.

Bobur

MASALNI SHE'RIY DAVOM ETTIRISH

**“Qadim – qadim zamonda,
Katta o'rmon tomonda.
Bir tulki bo'lgan ekan,
To'qayda o'sgan ekan.
U barchani ayyorlik
Yo'li bilan aldardi.
Qorong'i tushganida
Tovuqlarni ovlardi...” (I. Krilov)**

Oradan yillar o'tdi
Qish tugab, bahor keldi.
Ammo ayyor tulkining
Omadi kelmay qoldi.
Shu desangiz bir kuni
Olmoq bo'ldi tulkivoy
O'ljaning sarasini
Ko'rib birdan lol qoldi,
Tovuqlar egasini.
Sirtmoq tushdi bo'yinga

Chek qo'yildi "O'yin"ga
Shuni biling, azizlar,
Ko'za kunida sinar.

(Nodir)

**"Devorlardan oshib,
Tushmay o'raga
Bo'ri kirib oldi
Bir kun qo'raga.
Qo'rada yetimcha qo'zi bor edi,
Ona mehriga u chindan zor edi.
Bo'rining qorasi ko'ringani choq
Onam deb yugurdi unga qo'zichoq..."** (A. Oripov)

Bo'rining ham, afsus,
Bordir bolasi.
Yegulikka chorlar
Uning nolasi.
Kuchlilar oldida
Kuchsizlar ojiz.
Nega qo'zi qo'rada
Onasiz, yolg'iz?
O'lja bo'ri bag'rida
Ona isini izlar,
Och bo'rining qalbida
Yovuzliklar uyg'onar
Eh, qo'zichoq, bu dunyo
Senga beshafqat ekan.
O'lim bilan negadir
Qismating bog'liq ekan.
Shunday deya bo'rivoy
So'radi so'ngi so'zin...
Qo'zi edi lol, hayron
Yutgan edi tilchasin.
Alqissa, hech kimning taqdiri
Qo'ziga o`xshamasin! (Nozima)

Bo'ri hayron edi
Lol qolib unga
Ayyorligi tutib,
Birdan qo'ziga
Debdi: "Yur ketamiz"

Tayyorlan uyga.
Shunday deb,
Aldabdi uni Bo'rivoy,
Qo'zi bilmas edi
Buni hoyna – hoy,
Nariroq yur deb,
Aldadi uni.
Yeb qo'ydi bechora
Qo'zini birdan,
Hatto suyagi ham
Qolmadi undan. (E`zoza)

Buni ko'rib bo'ri
To'xtadi bir dam.
Vahshiy ko'zlarida
Yiltiradi nam.
Qo'zichoqqa qarab,
Onalik mehri
Jo'shdi va qo'zg'aldi
Shafqatning sehri
Uvillab-uvillab yig'lab oldi u,
Qo'rani tark etdi tushmay qorong'u.
Dikr-dikr sakrab,
Quvondi qo'zi.
Sevinchdan porladi
Quralay ko'zi. (Gulhayo)

SATRLARARO IJOD

(Majoziy obrazlar orqali ibratli hikoya tuzish)

Yalpiz bilan zarpechak

Yalpiz va zarpechak o'sar edi. Zarpechak yalpizga: “Kel do'st bo'lamiz”, debdi. Yalpiz xursand bo'libdi, Zarpechak o'rmalab-o'rmalab qo'shni hovliga yetibdi. “Mana endi deydorlashib, gaplashamiz, sen mening eng yaqin do'stim bo'lding” – deb yalpizni mahkam quchibdi.

Kunlar o'tib, yalpizning rangi o'chib, qoni qochib, holdan toya boshlabdi va Zarpechakka debdi: “Do'stim, negadir darmonim yo'q, kundan kunga holsizlanayapman, kunim bitganga o'xshayapdi”. Zarpechak uni yanada qattiqroq siqibdi va qah-qah otib kulib yuboribdi.

“Mana endi niyatimga yetdim! Seni hamma suyib, chakkasiga taqqanda ichimda olov yonib, qanday qilib seni ado qilishni o’ylardim. Maqsadimga erishdim”, – debdi.

Shu payt bog’bon kelib zarpechakni tak-tomiri bilan yulib tashlabdi.

Qayta hayotga kelgan yalpiz o’z-o’ziga: “Do’st tanlashda adashmaslik kerak ekan” – debdi.

(Javlon)

- So’lim bog’lar ichida,
Oqar suvning bo’yida,
Yalpiz o’sardi kulib
Erkin bo’lib, yastanib.
Ammo kundan kun o’tib
Pechak o’sar bo’y cho’zib.
Yalpizga bo’yin kerib,
O’sishiga yo’l to’sib.
Oxir ochko’z zarpechak
Hech ham o’stirmas chechak.
Endi hidsizdir yalpiz,
Bundan tashqari kuchsiz.
Bo’ldi ajib voqea
Kelib qoldi bir bola.
Ko’rdi u zarpechakni,
Zaharli ul pechakni.
Uzib oldi shu zahot,
Pechakni qildi barbod.
Ammo qildi bir xato
Yalpizni qildi ado
Alqissa, ayrim nomard
Kasriga qoladi mard.

(Naima)

- Yalpiz erkin o’sardi,
Ariq bo’yida yayrab.
Moychechag-u lola bilan
Do’st qadrdon misoli.
Zarpechak ko’rolmayin
Hujum qildi gullarga.
Yalpiz-u moychechaklar,
Lola va boshqa gullar,
Bir yoqadan bosh chiqarib
Qarshi bo’lib pechakka

Payhon qildilar uni.
Bilginki, shuni, do'stim
Birlashsang yov ham qochar
Ahillik bor joylardan
Dushman quyonday qochar.
Ahillikda gap ko'pdir.

(Sharif)

31. Bir tomonda o'rmonda,
Tog'li joylar tomonda.
Yalpiz yashagan ekan,
Zarpechak do'sti ekan.
Yalpiz hidin taratib
Osmonga bo'y qaratib.
O'sar emish kun sayin
Yam-yashil o'tda tayin.
Zarpechak ham sirg'alib
Asta bo'yni chirmalib
Yalpiz dam o'zar edi
Chiroyin to'sar edi.
Yalpiz esa parvo qilmay
Do'stini dushman bilmay.
Osmonga bo'y cho'zardi
Hidi olam kezardi
Shu tomonda bir bog'bon
Yashar erkin, charog'on
Bir kuni bog'bon kelib,
Shamoldek yelib-yelib,
Chirmovuqni o'ldirdi,
Yalpizni ozod qildi.
Shunday ekan bolalar,
Yomonlikni bilmanglar,
Kaltadir umri yomon
Boring ezgulik tomon!

(Nodir)

To'nka va nihol

To'nka va nihol yonma-yon yashardi. Nihol ko'rkam, qaddi tik edi. to'nka esa ancha yoshga kirgan, hayot mashaqqatlari ko'rinishiga soya slogan edi. Bir kuni Nihol To'nkaga: "Qachongacha menga to'siq bo'lasan, joyni bo'shatsang bo'lardi, erkin o'sishimga xalaqit berayapsan", – debdi. To'nkaning qalbi ranjisada sabr qilib, indamabdi.

Birdan kuchlar shamol turib to's-to'palon boshlanibdi. Bundan Niholning qaddi bukilib, beli sinay debdi va to'nkaga suyanib qolibdi.

Shamol tingach, o'z gapidan uyalgan Nihol “Yaxshiyam sen bor ekansan, aks holda hayotning bunday izg'irinida kimga suyanar edim”, – debdi va kechirim so'rabdi. **(Mardon)**

Bolalar o'yingohida bir to'nka bor edi. Bir nihol uning yonidan o'sib chiqdi va to'nkaga gap qotdi: “Men shu atrofdagi eng yosh, baquvvat va chiroyli niholman”. To'nka uf tortib: “Men sendan ham yosh ekanimda sindirib tashlashgan”, - dedi. Shu payt niholning ustiga koptok tushdi-yu, chiroyini ham yoshligini ham yo'q qildi.

Qissadan hissa shuki, insonning qancha umr ko'rgani emas, umrini qanday o'tkazgani muhim. **(Shaxzod)**

* * *

MASALDAN QISSADAN HISSA CHIQRISH

“PASHSHA VA HO'KIZ” (Ezop)

Pashsha ho'kizning shohiga qo'nib, uzoq vaqt o'tirdi va: “Senga og'irligim tushmayaptimi”, - dedi. Ho'kiz bunga javoban: “Xomtama bo'lma azizim, qo'nganingni ilg'amaganim deb qachon uchib ketganingni ham bilmayman”.

1. “Axmoq aybdor ayibini bila turib yana qayta so'raydi”. (E. Xolboboyeva)
2. Shunday odamlar borki, ba'zi bir insonlar uchun ko'zga ko'rinmaydi, shu bilan bir qatorda birovlariga na foydasi, na zarari tegadi. (M. Qahramonov)
3. Haqiqat – osmonda.
Nodon – haryonda. (Akbar)
4. Bilib o'tir o'rningni,
Har yerga suqma burningni. (Shohabbos)
5. O'z o'rnini bilmagan,
O'zing bila turib, birovga gap otma. (Bobur)
6. Bilmaganingni bildim dema,
Qilmaganingni qildim dema. (Doniyor)
7. Bemani so'zdan yiroq,
Jim o'tirgan yaxshiroq. (Mardon)

8. Kerakli yukning og'iri yo'q.
O'rdak o'zini g'oz sanar,
Chumchuq o'zini boz sanar. (Javlon)
9. Yo'q narsa bor bo'lar, kamtar bo'lsang,
Bor narsa yo'q bo'lar, manman bo'lsang. (Nodir)
10. Kamtar bo'lsang, obro' ortar,
Manman bo'lsang, ensa qotar. (Akbar)

“Yo'lovchi va chinor”

Ikku yo'lovchi yoz jazirasidan nafaslari qaytgudek bo'lib borishar edi. Ittifogo, yo'l bo'yida o'sgan chinorga ko'zlari tushib, uning soyasida, yonboshlab, hordiq chiqarishdi. Chinor tepasiga qarab yotisharkan, o'zaro so'zlashardi: “Qaraya, shunday azim daraxt-u – meva bermaydi, odamlarga foydasi yo'q!” chinor so'z qotdi: “Noshukur bandalar-ey! O'zingiz soyamdan foydalanib turibsiz-u, yana meni mevasiz, foydasiz daraxt deysiz-a!”

Qissadan hissalar:

1. Bel og'rimagan bel bo'lmas,
Birovning qadrini bilmas. (E. Xolboboyeva).
2. Dushman o'lar, do'st qolar,
O'sma ketar, qosh qolar. (M.Qahramonov)
3. Yaxshiga qilsang yaxshilik ham aytadi, ham qaytadi.
Yomonga qilsang yaxshilik na aytadi, na qaytadi. (A.Zuhurjonov)
4. Avval o'yla, keyin so'yla. (Shaxzod)
5. Avval otingni taqala,
Keyin yo'l tanla. (Naima)
6. Har kim o'zim bo'lay deydi.
7. Ko'p gap – eshakka yuk. (Shohabbos)
8. Shunday insonlar borki, ular faqat qabohatni ko'ra oladi. (Gulhayo)
9. Qalb jarohatini davolash mushkul ish.Shuning uchun bu qalbni Alloh taollodan Bo'lak tabib buni davolashda o'jiz. (Nozima)

10. Chinor izzat-hurmatin ko'rmagan odam, Ajratolmas chinor-u buta farqin.
(Javohir)
11. Ishi bitdi, eshagi loydan o'tdi. (Doston)
12. Boriga qanoat qil! (Shaxzod)
13. Har narsaning yaxshiligini bil.
Yeb to'ymagan, yalab to'ymaydi. (Doston)
14. Yeb turib ma'rama.
15. Gadoga choriq bersang, yamoqligini ham tilar. (Sharif)
16. Gadoning xurjuni to'lsa ham, ko'zi to'ymas. (Abdumavlon)
17. Yaxshilik qilsang, yashir yaxshilik ko'rsang oshir. Berganingni oziga
sana, olganingni ko'piga sana. (Bobur)
18. Avval o'zinga boq, Keyin nog'ora qoq. (Nodir)
19. Bilib-bilmay gapirma. Og'zingni ochguncha, ko'zingni och. O'zing suv
ichadigan quduqqa tupirma. (Javlon)
20. Yotgan ilonning dumini bosma. (Shaxzod)
21. O'zingni bil o'zgani qo'y. (Husnora)

“Chumoli”

Chumoli ham bir paytlar odam edi, dehqonchilik qilardi; biroq o'zi eytishtirgan hosilga qanoat qilmas, o'zgalarga hasad qilar, ularning xirmonidan don-dun o'g'irlab turardi. Uning bu qilig'iga Zevsning qahri kelib, uni bir chumoli deb ataydigan hashoratga aylantirib qo'ygan. Ammo, yangi qiyofada ham uning fe'l-xo'yi o'zgarmadi: u hamon dala-yu xirmon kezib, arpa-yu bug'doy o'g'irlaydi.

Qissadan hissalar:

1. Qazisan, qartasan:
Asl zotingga tortasan. (Husnora)
2. Ochko'zlikning savdosi bor,
Uning yo'llari bo'ladi-da tor. (Abbos)
3. Nafs balosi, Kibr havosi. **(Javlon)**

4. Har narsa o'z ipi bilan. (Doston)
5. Nafs – insoniylikdan mahrum qiluvchi mavhum kuch. (Sharif)
6. Yomon – yomon ochlik yomon. (Doniyor)
7. Ochko'zlik oshi bilan, Tegirmon toshi bilan. (Abdumavlon)
8. Mening nafsim balodur, Har maqomga salodur. (Javohir)
9. Nafs – insonni o'z domiga tortuvchi tubsiz jar. (Shohabbos)
10. Odam bo'lsang bo'l, har yemishing pok, chumolidan mijozlarga qolur xas-xashak. (Husnora)
11. Maqtanchoq o'zi bilmas,
Bilganning so'ziga kirmas. (E`zoza)
12. Va'dasiga vafosi yo'q,
Maqtanchoqning yuzi yo'q. (Naima)
13. Eshak maqtanib, tulpor bo'lmas, Chumoli maqtanib, sher bo'lmas. (Nozima)
14. Maqtanchoqlik zig'r toshining palahmonidir. (Husnora)
15. Nafsni tiygan valiy. (Gulhayo)
16. Pul ko'paysa, odam buzilar. (Nodir)
17. Ochko'zlikning ham javobi bor. (Javohir)
18. O'zi bo'lolmaydi, bo'lganni ko'rolmaydi. (Doston)
19. Ochko'zlik yomon odat
U keltirar falokat. (Sharif)
20. Ochko'zning o'zi to'ysa ham, ko'zi to'ymas. (Abdumavlon)

QISSADAN HISSAGA MASAL IJOD QILISH

Qissadan hissa: Kibr-u havo manmanlik, ko'pchilikka baxtsizlik keltiradi.

Chigirtka bilan yashil qurt

Bir kuni chigirtka qurtga maqtanib dedi:

- Voy sudralib yuruvchi-ey, hamma joyingni iflos qilib, sudralganing-sudralgan-a? Menga o'xshab erkin, sakrab-sakrab, o'ynab yursang bo'lmaydimi?

Bu so'zlarni eshitib turgan bargdagi yashil qurt esa lom-mim deya olmadi. Shunda qayerdandir "Pir" etib bir qush uchib kelib, barg rangiga qo'shilib ko'rinmay qolgan qurti yemay chigirtkani poqqos tushurdi va uchib ketdi.

(Nozima)

Oy va quyosh

Oy quyoshga dedi: "Endi yer yuzini zulmat qoplaydi". Quyosh unga "Yo'q, yo'q yerni zulmat qoplasa, insonlar ham, o'simliklar ham nobud bo'ladi. Istasang bir kunni zulmat bilan qopla. O'shanda o'zing ko'rasan", - debdi. Oy rozi bo'libdi va o'zgarishlarni ko'rib pushaymon bo'libdi.

(E'zoza)

Tovus bilan chumoli

Tovus bilan chumoli bahslashib qolishibdi. Chumoli: "Bizning chumolilarni ovchilar va ularning kuchuklar bosib, nobud qilyaptilar. "Birgina men tirik qoldim", - debdi. Sen qanday tirik qolasan desa, "Men patlarimni yoysam bo'ldi, daraxtga uyg'unlashib ketaman", - debdi.

Chumoli tovusni maqtab: "Sen chiroylisan", - debdi. Tovus patina yoyib, ko'z qilib dunyoda tengi yo'q kibru havoga berilgim sayrab yubordi. Chumoli esa pana joyga berkinib qolibdi. Bundan habar topgan ovchilar tovusni tezda tutub olishibdi. tutib olishibdi.

(Shaxzod)

Quyion va tipratikan

*Bir kuni quyion o'rmonda ketayotib tuzoqqa tushib qolibdi. Nima qilishni bilmay turgan bir paytda yonidan do'sti tipratikan o'tib qolibdi. Unga quyion qo'rslik bilan, "Hoy tipratikan meni qutqarib yubor!" – debdi. Tipratikan bunga javoban: "Nega qutqaray?" – deb so'rabdi. Quyion: "Axir, men senga yegulik topishingda yordam berganman-ku!" Tipratikan: "Ha, o'sha topgan yeguligingni ham o'zing yegansanku, bundan tashqari men o'tgan safar ham senga yordam bersam-da, meni kamsitgansan. Shunday ekan sening jazoying shu yerda buncha tasqarasan, tikanlaring qo'rqinchli, mening jungim oppoq, momiq deb maqtanib", - deb, yo'lida davom etibdi.

(Mardon)

Qissadan hissa: Luqmoni hakim nasihati: "Qilgan yaxshiliklaringni emas, olgan yaxshiliklaringni va qilgan gunohlaringni yodda saqla".

Chol va bola

Bir o'rmonda qari chol,
Bolaga duch kelibdi:
"Yordamlashgin, hoy bola,
Og'ir ekan yuk qara".
Bola gerdayib sekin:
"Nega yordam beray, ayting"?
Chol so'z boshladi keyin:
"Qo'rs bo'lmagin hech qachon
Qariysan hali zamon.
Boshingga tushsa bu ish
Qilasan sen ham tashvish.
Yordam bermaydi hech kim
Kel, yordamni sen bergin"
Bola cholning so'zidan
O'ylab qo'yibdi chuqur.
Chol qo'lidan yuk oldi
Uyi tomon yo'l soldi. (Rasulov Nodir)

SOHIR TUYG'ULAR

Hislarimga sirdosh bo'lgan yomg'ir (Aynan yomg'ir yog'ayotgan holatda yozilgan)

Erta tongda yog'gan yomg'ir meni o'yga chulg'adi. Daraxtlarning g'uborini yuvayotgan yomg'ir hayolimni o'ziga tortdi.

Yomg'ir... Nega kuz kuni yomg'ir yog'adi? Balki, osmon insonlar qismatiga achinar, balki yil bo'yi quyosh nurlaridan tovlanib, sarg'ayib hazon bo'lgan yaproq qismatiga achinar.

Kun o'z poyoniga yetmoqda, misli yaproq hayoti singari. Osmon ko'z yoshi bilan barg g'uborlarini yuvib uni poklaydi. Osmon go'yoki barg qismatiga achinib yig'laydi. Endi yam-yashil daraxtlarning shivir-shiviri undan yiroq, unga begona. Qurib qovjiragan barg keyingi avlodlari uchun qurbonlik keltirdi.

Atrofni kuzatar ekanman, hayolimga shunday fikr keladi: demak, kimdir qurbon bo'ladi, kimdir tug'iladi. Bu hayot qonuni.

Hayot qonuni ana shunday davom etadi. Yomg'ir asta shivirlashdan to'xtaydi, bargi xazonlar yuvilgan g'uborlardan yal-yal yonadi. Kuz yomg'iri...

(Gulhayo)

Hayot

Mening nazarimda hayot – bu bir daryo. Undan suv ichish uchun har bir inson, albatta, o'z chelagini soladi. Faqatgina bilimli, aqlli, farosatli va tajribali insonlargina o'z chelagini to'ldirib oladi.

O'ta sodda, noshud insonlar esa to'lgan chelagini suvdan chiqara olmay, o'zi ham chelagi ortidan hayot daryosiga sho'ng'ib ketadi.

Inson hayotga yig'lab keladi va yig'lab ketadi. Kelishida ochiqchasiga yig'lab, shovqin-suron bilan keladi-yu, ketishida esa qalbdan yig'lab, ohista bu dunyodan ko'z yumadi. Insonning hayotga yig'lab kelishi baxt, yig'lab ketishi esa chuqur qayg'u. Men shuni istardim: inson bu hayotga yig'lab kelsin-u, mamnun ko'z yumsin. Uni insonlar mamnun kutib olsin-u, yig'lab kuzatsin...

(Shaxzod)

TO'G'RILIK

To'g'rilik shunday yo'lki, unda yurib o'tishga har kimning ham qurbi yetmaydi. Bu yo'lning muqaddimasi – Vijdon. Yo'lda yurar ekansiz yo'lning chap qismi insof, o'ng qismi iymon chizig'i bilan chegaralangan. Insonlar ko'pincha ana shu to'g'rilik yo'lida ravon yurolmay, ba'zan chap sarhadni, ba'zan o'ng sarhadni kesib o'tadilar. Bu yo'lning oxiri esa g'alaba. Inson to'g'ri yo'ldan yurib maqsadiga yetdimi, demak, yutdi!

To'g'rilik. Alloh tomondan yerga yuborilgan eng ezgu hislatlardan biri. To'g'ri inson arraga, egri inson teshaga o'xshaydi. Egri inson qay yo'l bilan bo'lsa ham barcha olqish, barcha omad menga bo'lsin deydi, xuddi teshaga o'xshab: Tesha taxtani faqat o'z tarafiga yo'nadi. To'g'ri inson bo'lsa, maqtanchoqlik, ikkiyuzlamachilik qilmaydi, menga ozginasi ham qanoatga yetadi deydi va o'z barobarida o'zgani ham o'ylaydi, xuddi arraga o'xshab: arra taxtani arralar ekan, qipig'ini ham u tomonga, ham o'z tomonga to'kadi.

(Shohabbos)

BAHOR

Uylarning tomiga birikkan sumalaklar qishning farzandi emasmi, uning kelayotganidan qatra-qatra yosh to'kmoqda. Uch oy mobaynida uyquda yotgan daraxtlar yana junbushga keldi. Ular bugun yana bir yoshini qarshi olishdi. Bahor shunday faslki, u to'quvchiga o'xshaydi. Tabiatdagi ko'pgina narsalarga kiyim to'qib beradi: o'rikka och pushti, dalalarga yashil libos ulashadi.

Bahor shunday faslki, u jonlantirish xususiyatiga ega. Butun qish davomida tinim olgan barcha mavjudotlarni yana harakatga tushiradi: bobo dehqon yerga yo'l oladi. Uyqudagi hayvonlar uyg'onib, tirikchilik tashvishini boshlaydilar. Bahorning

fe'li injiq qizaloqqa o'xshaydi. Biror nima yoqmasa, darrov yig'lab yuboradi. Ammo, yosh bola singari ovunishi ham juda tez.

(Abbos)

HAQIQAT

Haqiqatning suyagi yo'q: egiladi, bukiladi lekin sinmaydi.

Haqiqatning ko'z-qulog'i yo'q: lekin manzilidan adashmaydi.

Haqiqatning sog', Haqiqatning-cho'log'i yo'q: baland-pastda sakrab yuradi.

Haqiqatning qon-qarindoshi yo'q: hammani birday ko'radi.

Haqiqatning makoni yo'q: har sof vijdon menda qol deydi.

Haqiqatning vafosi yo'q: u asrlar osha yashaydi.

Ba'zan haqiqat adolatsizlik qurboniga aylanadi. Lekin yomg'irdan so'ng bulut tarqab, quyosh chiqib ketganday, haqiqat ham oxir-oqibat tantana qiladi. Ba'zan haqiqatni yashirish insonlar orasida ishonch va muhabbatning ko'tarilishiga olib keladi.

(Akbar)

Parvoz ilhomi

Kitob misli - quyosh. U bilim nurlarini beminnat sochadi. Kitob - mevali daraxt. U ilm mevalarini ulashadi. Unga faqat e'tibor kerak xolos. Kitob dunyoni qutqaruvchi suv ya'ni obihayot. Uni e'zozlasang bo'ldi. Kitob mo'jizakor tabiat. Uni asrasang u senga olam-olam zavq-u shavq ulashadi. Kimki bu mo'jizalardan to'g'ri foydalansa, undan bahramand bo'ladi. U insonni o'zligi, o'tmishi va kelajagini anglatadi. Bu sehrdan kim to'g'ri foydalansa va intilsa, uni ilm tog'idagi taxtga shoh etib tayinlaydi.

(Javohir)

KUN HIKMATI

Haqiqatdan qo'rqmaydigan odamning
Yolg'ondan qo'rqishiga asos yo'q.

Nasihatni olmaydigan odam baxtsizdir.

Go'zal xulqlilik odoblilikning yuqori bosqichidir.

Ma'nosiz, poyma-poy so'zlamodan ko'ra sukut qila bilish nodir fazilatdir.

Dunyodagi eng sergap odamlar bekorchilardir.

O'zgalar sirini oshkor etish – sotqinlik, o'z sirini oshkor etish axmoqlikdir.

Hammaga do'st bo'lgan odam hech kimga do'st emas.

Vaqt – dunyoda kimlar uchun uzundir, bekorchilar uchun qisqa narsa.

Yutganing o'zingniki, chaynaganing gumon.

Bu dunyoda hamma narsa o'zgaradi, ammo fazilat qonunlari sira o'zgarmaydi.

Xulq – atvori buzuvchi odamdan, hatto, o'z oilasi bezadi.

Qisqalik – iste'dodning singlisi.

Haqiqiy do'st boshga kulfat tushganda bilinadi.

Ko'pgina buyuk haqiqatlar avvaliga masxaralangan.

Hayotning har lahza go'zal, umrning har olami g'animat

Vijdon – yaxshilikni yomonlikdan ajratadigan, insonlarni yaxshilikka yo'naltiradigan kuchli quvvat.

Insonning eng zo'r yordamchisi o'zining aqlidir.

Masala bilimning butunligida emas, aqlning butunligida.

Do'sting shod bo'lsa, sen ham shod bo'l, g'amgin bo'lsa, g'amgin bo'l.

Kechdan ko'ra hech.

Biron – bir narsani bajarolmayman deb ko'ngilga keltirdingizmi, shu paytdan boshlab uni amalga oshirish g'oyat mushkul bo'lib qoladi.

Kishi o'zganing baxtidan baxt topsa, u haqiqiy yashagan hisoblanadi.

Ko'ngilda til nayzasining jarohati bitmas u jarohatga hech narsa makhamlik qilmas. Kimki ko'ngilni qattiq so'z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayza.

(“Kun hikmatlari”ni Nozima va Gulhayo to`pladi)

MUNDARIJA

Alifbo topishmoq	
Qofiyadosh topishmoqlar	
Soʻz oʻyini	
Fikrni davom ettiring	
Raqlamlar boʻylab sayohat	
Tafakkur hududi	
Labirint maqollar	
Labirint hikmatlar	
Mitti ishoralar	
Ranglar falsafasi	
Masalni sheʼriy davom ettirish.....	
Satrlararo ijod	
Masaldan qissadan hissa chiqarish	
Qissadan hissaga masal ijod qilish	
Sohir tuygʻ ular	
Kun hikmati	

